

## SPORT JURNALISTIKASI SHAKLLANISHINING TARIXIY ASPEKTI

**Mehrangiz Mutinova Saidavzalovna**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Kechagi kunning maqsadli o‘tishi ertangi kunning muvaffaqiyat kalitidir. Asrlar davomida jismoniy tarbiya ko‘ngilochar vositadan, hayotning asosiy mazmuniga aylanib bordi. Tarixiy manba va milliy o‘yinlarimiz, yurtimiz va dunyo miqyosida sportning shakllanish aspektini yoritib berdi.

**Kalit so‘zlar:** sport, jurnalistika, aspect, tarixiy manba, milliy o‘yinlar.

Jurnalistika – bugungi kunga kelib dolzarb va ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlarining saralangan dalilni sharhlash va baholash yordamida dunyoqarashni kengaytirish vazifasini bajaradi. Jurnalistikaning mohiyatida voqealar haqida ma’lumotlar talqini, zamonaviy hayot mavzulari va yo‘nalishlari, turli janrlar, uning taqdimot va shakllari, shuningdek mahsulotni sharhlash hamda yig‘ish amaliyoti va bularni ommaviy auditoriyaga tarqatish jamlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qaralganda jurnalistika bu ommaviy axborot vositalarining bir qismi hisoblanadi, shu jumladan uning tarkibiga ko‘p tarmoqli jamiyat institutlari: matbuot, radio, televidenie va internet kiradi.

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra jurnalistika ikkita asosiy: ilmiy – tadqiqot va jurnalist surishtiruvchi yo‘nalishlariga bo‘linadi. Odatda jurnalist tadqiqotchi ochiq oydin bo‘lgan manbalar bilan ishlaydi. Jurnalist surishtiruvchi, surishtiruv jarayonida yopiq ya’ni mavjud bo‘lmagan ma’lumotning ichiga kirib tergov olib boradi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar qatorida ommaviy axborot vositalarida ham rivojlanish tomon siljish bo‘layotganini aytib o‘tish joiz. Mustaqillikka erishishimizdan so‘ng jurnalistika sohasiga alohida etibor berila boshlandi va bir qator ishlar amalga oshirildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yosh yetishib kelayotgan jurnalistlar faolligini oshirib, ularning fikr doiralarini kengaytirish, jurnalistlar chiqishlarini kuchaytirish, jahon miqyosida o‘zbek jurnalistikasi ham rivojlangan mamlaklar jurnalistikasi singari tengma teng raqobat olib borish darajasiga yetishishi uchun harakat qilishdir.

Jurnalistika ta'limida ixtisoslashuv bo'yicha jahon tajribasida quyidagi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlanadi:

- Gazeta jurnalistikasi;
- Televidenie jurnalistikasi;
- Radio jurnalistika;
- Xalqaro jurnalistika;
- Internet jurnalistikasi;
- Fotojurnalistika;

Shuningdek quyidagi yo'nalishlar ham jurnalistika ixtisosligi bo'yicha tarmoqlangan:

- Reklama;
- OAV iqtisodi va menejmenti;
- Ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiya dizayni;
- Parlament jurnaliastikasi;
- Sport jurnalistikasi;<sup>2</sup>

Ixtisoslashuv masalasi jurnalistika samaradorligining omili. Ayniqsa, sport sohasiga ixtisoslashuv masalasi bugungi kun jurnalistikasining dolzarb vazaifalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy – siyosiy, madaniy, iqtisodiy sohalarni qamrab olgan jurnalistika hayotimizga sport jurnalistikasini ham olib kirdi. Yurtboshimiz I.A. Karimov “Jismoniy tarbiya va sport yurtimizning har qaysi shahar va qishloqlariga, har bir xonadonga kirib borishiga erishish shu asosida hayotimizga sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bizning intilishlarimizning uzviy bir qismiga aylanishi zarur”<sup>3</sup> – deb aytgan edi. Aynan sport sohasi sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bilan birga, mamlakatni dunyoga mashhur qila oladi, davlat jahon arenalarida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport tarixi jahon xalqlari madaniy tarixining asosiy qismidir, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi”<sup>4</sup>, - deb yangi tariximizga yo'l ochib berdi. Buni yurtimizning mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy madaniy islohotlarning samarali natijalarida ko'rish mumkin. O'zbekiston xalqlaro miqyosidagi nufuzida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi

---

<sup>2</sup> [www.database.olympics.com](http://www.database.olympics.com)

<sup>3</sup> Akramov A.K. “O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”. T., 1997.Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997

<sup>4</sup> Akramov A.K. “O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi”. T., 1997.Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997

yutuqlarining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'rni g'oyat kattadir.

Qadimda O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning turmush sharoitlarida, o'z vatanlarini himoya qilishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish kabi madaniy hamda jangavorlik faoliyatlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda yashagan xalqlar o'rtasida jangavorlikni oshirish o'z hududlarida osoyishtalikni ta'minlash, xalq farovonligini yuksaltirish uchun o'tkazgan diniy, madaniy marosimlar, to'ylar va turli an'analarda kamondan o'q otish, qilichbozlik va nayzabozlik qilish, kurash, ot o'yinlari hamda boshqa xalq milliy harakatli o'yinlari bilan mashhur bo'lganlar. U davrda bugungi axborot yetkazishning zamonaviy texnologiyalari rivojlanmagan bo'lsada insoniyat to'y, marosim va turli bayramlarda o'z ishtiroki va guvohligi bilan ma'lumot to'plashi barobarida, jarchi, xabarchi xizmatlari orqali turli ma'lumotlardan muntazam ravishda xabardor bo'lishgan.

Qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida jismoniy tarbiya vositalarining (turli o'yinlar, otda yurish, kurash, nayza uloqtirish va h.k.) qo'llanilishi haqida «Avesto», «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Qirqqiz», «Manas», «To'maris» kabi tarixiy manbalar hamda xalq og'zaki ijodi guvohlik beradi. Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati ayniqsa «Alpomish» dostonida ko'proq ifodalangan. «Alpomish» dostonida kurash, otda poyga, kamondan o'q otish, merganlik kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun, sevikli yori uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan. «Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki bundan bir necha ming yillar muqaddam mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarning bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan o'ta barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan. Shu o'rinda xalqimizning milliy o'yinlariga nazar solsak. Xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, laparlar, aytishuvlar, askiyalar va juda ko'p janrlardagi san'at ancha ustun turadi. Shuningdek, ular qatorida ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan qator harakatli o'yinlar va sportga xos o'yinlar ham juda ko'p. Ularni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin, ya'ni:

1. Kurash (buxorocha, farg'onacha, xorazmcha usullar).
2. Ot o'yinlari (ko'pkari-uloq, poyga, otdan ag'darish, chovg'on va h.k).
3. Dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar, hazil va aytishuvlar).
4. Tosh ko'tarish.
5. Arqon tortishish.
6. Kuch sinashish.
7. Harakatli milliy o'yinlar.

## 8. Yugurish musobaqalari (batba)<sup>5</sup>

Bunday o'yinlarning deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llangan. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichlashish, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda dushmanlar bilan mardonavor jang qilishgan yigit va qizlar timsoli tasvirlanadi. Xalq og'zaki dostonlarida xalq irodasi, yovuz kuchlar va yigit-qizlarning sevgi-muhabbat yo'lida qurbon bo'lganliklari bayon etilishi bilan birgalikda, jasur, botir, pahlavon, chavandoz kabi sifatlar ham o'z ifodasini topgan. Bu qadimgi afsona va dostonlar orqali bizga qadar yetib kelgan sport turlari buyuk sarkardalar faoliyatida yanada rivoj topdi.

Tarixga, jahongir Amir Temur hayoti va faoliyatiga nazar solsak, Amir Temur yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan bo'lib, o'zi ham urushlarda bir necha bor faol qatnashib tajriba orttirgan va mohir jangchi bo'lib yetishgan. Amir Temur o'zining amirlari, vazirlari, mingboshi, yuzboshi, o'nboshi va alp yigitlari, bahodirlariga jang sirlaridan shaxsan o'zi saboq bergan, shogirdlar tayyorlagan. Otda jang qilishda qilich, nayza, kamon-yoy, to'qmoq, kaltak, qamchi, arqon va hokazolardan foydalangan. Bu qurollar bilan jang qilish oson emas. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo'lgan. To'g'ri kelganda yakkama-yakka ot ustida olishuv, tortishuv, og'darish, savalashish kabi tabiiy harakatlardan ham mardonavor foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga qunt bilan o'rgatgan, ta'lim bergan. Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog'larga sayr qilish bilan o'tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog'larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o'ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ularni poyga, kurash, qilichlashish, ko'pkari kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Shaharlardagi qal'alarni egallashda Narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalanganlar.

«Amir Temur» tarixiy romanida tog'dagi yurish va janglar haqida shunday deyiladi: «Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba'zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo'qlar sirpanib daraga tushdilar. Hazrat Sohibqiron maxsus o'zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho'p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig' urmasdan, yana bir tog' cho'qqisiga ko'tarildilar. Yana ikki kun shu tariqa kechdi». Tezkor va katta daryolardan kechib o'tish oson emas, albatta. Amir Temur bunday paytlarda meshlar, yog'ochlardan yasalgan sollar, arqon tortib undan ushlab o'tish usullari va boshqalardan foydalanganlar. Jangovorlik faoliyatida tog', o'rmon,

<sup>5</sup> Eshnazarov J. "Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish". T., 2008  
Xoshimov K., Nishonova S., va boshqa "Pedagogika tarixi". T., O'qituvchi, 1997  
Xojayev F. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya". T., O'qituvchi, 1997

sahrolarda, ayniqsa, kechasi va tuman kunlarida manzilga adashmay topib borish, chamalay bilish quyosh, oy, yulduz, soya, shamol va boshqa omillardan foydalanishni yaxshi bilgan. Amir Temur faoliyatida harbiy-jismoniy mashqlardan foydalanish eng ustuvor tadbirlardan biri bo'lgan.

Temuriylar orasida davlatni idora qilish, madaniy-marifiy jihatdan uni yuksaltirishda tarixda katta o'rin egallagan ahamiyatli shaxs - Zahriddin Muhammad Boburdir. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiqroq hukm surgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi, Farg'ona davlatining hokimi bo'lgan. Bobur yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqqan, dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" (Sher) taxallusini olgan. U o'z hayoti, zamonasi va barcha voqealarni "Boburnoma" asarida yozib qoldirgan. Unda Hindikush tog'laridan otda uzoq mamlakatlarga o'tgani, tog'u-toshlarda chiniqish uchun yalangoyoq yurgani, kuch-g'ayrat to'plab jang qilgani haqida hikoya qiladi.<sup>6</sup>

Taniqli adib Pirmqul Qodirov "Yulduzli tunlar", "Bobur", "Avlodlar davoni" tarixiy romanlarida faqat tarixiy voqealar, Bobur hayotinigina emas, balki o'sha davr madaniyati, urf-odatlarini, mashshaqatlarga bardosh berishi, jismonan chidamli va kuchli bo'lishlik kabi ijtimoiy-tarbiyaviy tomonlarga katta e'tibor bergan. Bu esa hozirgi avlodlar, ayniqsa, yoshlarni vatan tuyg'usi, uni himoya qilish, jangovarlik ruhini mustahkamlashda xizmat qiladi. Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimiyatni boshqaruvchilar o'z jangchilarini faqat jang qilish san'atinigina emas, balki ularni jangovarlik ruhida tarbiyalashning asosiy mazmuni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishga ham o'rgatganlar. Bunga yuqorida qayd etilgan jismoniy tarbiya vositalarini maqsad yo'lida ishlatganlar.

Xulosa qilib aytganda, uzoq va yaqin o'tmishimizda xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo'nalishlari hamda ilmiy-nazariy jihatlarini o'quvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslarida mukammal o'rganishlari davr talablari asosida ta'minlash bugunning dolzarb muammolaridan biridir. Jahonga dong'i ketgan sarkarda Amir Temurning askarlarini chiniqtirish yo'lidagi har bir harakati asrlar oshib bugungi kunga kelib ma'lum bir sport turiga aylandi. Natijada milliy sport turlarimiz va sport jurnalistikasi rivojiga hissa qo'shgan asosiy omillardan biri bo'ldi.

Sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining uzviy qismiga aylangani alohida tahsinga loyiq. Yoshlar orasida suzish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, dzyudo, badiiy gimnastika, shaxmat, futbol, mini-futbol, stol tennisi, kurash, yunon-rum kurashi, boks, yengil atletika, qilichbozlik singari sport turlariga qiziqish tobora

<sup>6</sup> Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997

ortmoqda. Yurtimizda keyingi yillarda sport majmualari barpo etish borasida ulkan tajriba to'plandi. Bugun eng chekka hududlarda qad rostlayotgan sport inshootlari ham xalqaro talablarga to'la javob beradi. Sport majmualarining deyarli barchasi yurtimizda ishlab chiqarilgan sport inventarlari bilan jihozlanmoqda. Bugungi kunga kelib, ham ma'nan, ham jismonan barkamollikka intilish – qaysidir oliy tabaqaga mansub kishilarning shohona imkoniyati va imtiyozi emas, balki bu – har bir shaxs, har bir individning fuqarolik burchi va vazifasiga aylanib o'zi qiziqqan sport turi bilan shug'ullanishga barcha imkoniyatlar yaratib berildi.

Sport jurnalistikasi tarixining dunyoda rivojlanish bosqichiga etibor qaratsak, Evropada aynan, XIX asrning oxiriga kelib, Qadimgi Yunoniston diniy marosimlaridan biri bo'lgan Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi hamda uning dunyo bo'ylab tarqalishi sport, ya'ni jismoniy tarbiya madaniyatiga bo'lgan yangicha qarashlarga asos soldi. Bunda hammabop sport turlari qatori oliy tabaqa kishilariga xos sport turlarining ommalashishi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar – har qanday odam o'zining kuchi va qobiliyatini namoyish qilib, jamiyatdagi o'rni va obro'siga ega bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga, avom xalqning ko'ngilxushligi deb hisoblangan ba'zi bellashuvlar sport turi sifatida tan olina boshlandi. Sportga, jismoniy tarbiya madaniyatiga berilayotgan etibor natijasida, aynan shu davrda, sport jurnalistikasi shakllandi, rivojlandi, ommalashdi va taraqqiy eta boshladi. Tarixni kuzatar ekansiz, sportning rivojlanishi sport jurnalistikasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Qaysi mamlakatda sportga davlat siyosati darajasida etibor berilar ekan, o'sha yurtda sportni OAV yordamida keng yoritilishi, targ'ib qilinishini ham kuzatish mumkin.

Yurtimizda sport jurnalistikasi – jurnalistikaning alohida ko'rinishi, o'ziga xos yo'nalishi sifatida taraqqiy eta boshladi. 1932 yildan beri chop etiladigan "O'zbekiston fizkulturachisi" gazetasi 1993 yildan boshlab o'zbek va rus tillarida "Sport" nashri sifatida keng ommaga havola qilina boshladi. 2004 yilda O'zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi tasarrufida "Sport" telekanalining tashkil etilishi, o'zbek sport jurnalistikasini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Bugungi kunga kelib 24 soat, ya'ni tunu kun davomida faoliyat ko'rsatayotgan bu telekanal yurtimizda hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha sport voqealarini yoritish, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Yurtimizda sport sohasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni targ'ib qilish va ommalashtirish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar ko'p jihatdan sport jurnalistikasi qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib kelmoqda. Sportning ommalashishi, sport jurnalistikasining taraqqiyoti bugungi kunda qanday ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi borasidagi savolga javob berish o'rinli. O'tgan asrda sport muayyan bir soha, ilmiy izlanish va nazariy yo'nalish sifatida tan olindi. Sport tibbiyoti, sport psixologiyasi kabi fan sohalarining rivojlanishini, sport uyushmasi

tuzilishi, sport anjomlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar va tashkilotlarning faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning bari sport sohasining jamiyatda o'z o'rnini borligini isbotlaydi. Axborot asri, globallashtiruv davri deb nom olgan bugungi kunga kelib gijohvandlik, OITS va turli og'ir darajadagi virusli bedavo dardlar o'z yechimini kutar ekan, ularning oldini olish chora tadbirlari samarali yechim bo'lmoqda. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sport bilan shug'ullanish bu masalaning eng sodda va hammabop javoblaridan biridir. Shu bilan birga kamharakatlik, undan kelib chiqadigan turli salbiy oqibatlar ham, aynan, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish yordamida echimini topadi. Yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish bilan katta miqdordagi cheklanmagan va saralanmagan axborot oqimidan himoya qilish, turli siyosiy guruhlar, zararli oqimlar qo'shilishdan saqlab qolish imkoniyatini beradi. Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi hamda turli musobaqalarda qatnashishlari uchun sharoit hozirlamoqda. Ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishga, kimgadir boqimanda bo'lmay jamiyatimizning teng huquqli a'zosi sifatida hayot kechirishga intilmoqdalar. Shu bilan birga, bolalarda ko'p uchraydigan, ba'zan jarrohlik yo'li bilan shifo topiladigan kasalliklar ham, aynan, sport mashg'ulotlari yordamida bartaraf etilayotgani bugungi kunda jismoniy tarbiyaning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Sport jurnalistikasi atamasi – «sports journalism» ingliz tilidan olingan bo'lib, sport mavzusidagi axborotni yig'ish, saqlash, tahlil qilish, dasturlash vazifalarini bajaradigan jurnalistika shakli yo'nalishlaridan biridir.<sup>7</sup>

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda sport yo'nalishidagi OAV daromad keltiradigan, auditoriyani jalb qilishda siyosiy, ijtimoiy mavzuda butun dunyoga material tayyorlaydigan yetakchi tashkilotlardan qolishmaydi. Ammo doimo ham shunday bo'lmagan.

XIX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab sport jurnalistikasi jamoatchilikning qiziqishini qozonishga muvaffaq bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari yordamida sport ko'proq e'tiborni tortadi. Sport va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati 1830-yillarda Amerikada aniq bo'ldi. Amerikaning ilk sport jurnallari 1820-yilning oxirida paydo bo'lgan. 1835 yilgacha 7 tagacha jurnal nashrdan chiqqan. 1835 yilga kelib ularning ikkitasigina faoliyatini davom ettirgan. Ularning yetakchisi American Farmer va American Turt Register nashrlaridir.

XX asrning boshida sport jurnalistikasi rivojlanishi jadal davom etadi. 1900 – 1918 yillarda sport jurnalistikasi sohada o'z o'rnini, mavqei borligini isbotlashga erishadi. 1910 yilda barcha gazetalarda yirik sport voqealariga katta e'tibor qaratishadi.

<sup>7</sup> Yulduz Ortiqova "Sport jurnalistikasi". T., 2016

1903 yilda beysbol bo'yicha birinchi musobaqalar start oladi. Birinchi jahon urushi paytida sport askarlar o'rtasida ommalashadi. Tarixda 1920 yillar sport jurnalistikasining oltin davri deb e'tirof etildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997.
2. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
3. Akramov A.K. "O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi". T., 1997.
4. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
5. Eshnazarov J. "Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish". T., 2008
6. Xoshimov K., Nishonova S., va boshqa "Pedagogika tarixi". T., O'qituvchi, 1997
7. Xojayev F. "O'zbekistonda jismoniy tarbiya". T., O'qituvchi, 1997
8. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. T., O'qituvchi, 1997
9. Yulduz Ortiqova "Sport jurnalistikasi". T., 2016
10. [www.database.olimpics.com](http://www.database.olimpics.com)